

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 12-may

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 60 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 12-may

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© “Sciences problems team” MChJ, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Rahimova Sevara, Hakimova Nargiza, Bakirov Shoxrux
QISHLOQ XO'JALIGIDA YUK MASSASINI O'LCHASHNING METROLOGIK TA'MINOTI: ANIQLIK,
USULLAR VA INNOVATION YECHIMLAR 4-10

Жуманазаров Акмал
АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ГОРНО-РАЗМОЛЬНЫХ МАШИН: ТЕОРИЯ ОБЪЕМНОГО
РАСПРЕДЕЛЕНИЯ 11-18

Rahimova Sevara, Hakimova Nargiza, Bakirov Shoxrux
TIBBIYOTDA YUK MASSASINI O'LCHASHNING METROLOGIK TA'MINOTI: ANIQLIK, USULLAR
VA INNOVATION YECHIMLAR 19-23

TARIX FANLARI

Salayev Umrbek
OROL DENGIZI TARIXI. YANGI O'ZBEKISTONDA REJALAR VA USTUVOR VAZIFALAR 24-21

Atamuratova Dilafroz
XORAZM TIPOLITOGRAFIYASIDA NASHR QILINGAN BA'ZI ADABIYOTLAR TAHLILI 22-27

IQTISODIYOT FANLARI

Mirtursunova Dinara
BANKLARDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI 34-36

FALSAFA FANLARI

Холиқова Покиза
ИЖТИМОЙ ДЕВИАНТЛИК МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ 37-41

FILOLOGIYA FANLARI

Yakubova Feruza
"SARF" VA "TASRIF" ATAMALARINING FARQLARI VA SARF ILMINING
NAZARIY ASOSLARI 42-44

Turdaliyeva Dilfuza
XALQ MAQOLLARINING KONTEKSTUAL TAHLILI 45-48

TIBBIYOT FANLARI

Турсунова Лайло, Дадажонов Хамидулло
КЛИНИКО-ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ НА
ДИАЛИЗНОМ ЭТАПЕ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК 49-54

Мамадалиев Хасанхон, Тошматова Зухрахон
ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА АНТИФОСФОЛИПИД СИНДРОМИНИНГ УЧРАШИ ВА УНИНГ
ДЕРМАТОЛОГИК НАМОЁН БЎЛИШИ 55-59

XORAZM TIPOLITOGRAFIYASIDA NASHR QILINGAN BA'ZI ADABIYOTLAR TAHLILI

Atamuratova Dilafruz Rashidovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

Abu Rayyhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasida dotsenti

E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Tel: +998 97 510 84 33

ORCID: 0000-0002-0804-0512

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya. XVIII asr Turkiyada ilk tipografiya Vazir Ibrohim poshoning tashabbusi bilan sulton Ahmad III davrida ochilib, 1728-yil ilk mevasi – arab-turk lug'ati bosib chiqariladi. Eronda ilk chop etilgan kitob 1825-yilda chiqariladi. Xivada toshbosma Muhammad Rahimxon II Feruz saroyi qoshida ochilgan bo'lib, u asrlar davomida ko'z qorachig'iday asrab kelingan xalqning noyob madaniy merosi bo'lgan qo'lyozma asarlarni ko'paytirish bilan shug'ullangan. Ba'zi manbalarda mazkur toshbosma 1877-yildan faoliyatini boshlaganligi to'risida ma'lumotlar keltiriladi. Bosmaxonada kitoblar asosan o'zbek tilida nashr qilingan. Tadqiqotchilar mazkur toshbosma faoliyatini 1874-yildan ish boshlaganligini aniqlashga muvaffaq bo'lishgan. Mazkur litografiya keyinchalik Xorazm matbuotining yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi. Toshbosma 1863-1910-yillarda ya'ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida Xiva va uning tevarak-atrofidagi shoir va adabiyotchilar saroyda adabiy markaz shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Feruz ko'magida shoirlarning o'nlab devon va tarjimalari toshbosmada nashr qilindi. Bu davrda toshbosma faoliyatining ahamiyati kitob nusxalarini ko'paytirishdan iborat bo'lgan. Maqolada Xiva toshbosmasida nashr qilingan ba'zi adabiyotlar – devonlar borasida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Xiva litografiyasi, tipografiya, matbaachilik faoliyati, devon, saroy adabiy muhiti.

ANALYSIS OF SOME LITERARY WORKS PUBLISHED IN THE KHOREZM TYPOGRAPHY

Atamuratova Dilafruz Rashidovna

PhD in History, Associate Professor,

Department of History,

Urgench State University named

after Abu Rayhon Beruni

Abstract. The first printing house in Turkey in the 18th century was opened during the reign of Sultan Ahmed III on the initiative of Vazir Ibrahim Pasha, and in 1728 its first fruit, an Arabic-Turkish dictionary, was printed. The first book printed in Iran was published in 1825. In Khiva, at the palace of Muhammad Rahimkhan II Feruz, a lithography was opened that was engaged in the reproduction of manuscripts - a unique cultural heritage of the people, which was kept for centuries as the apple of the eye. According to some information, this lithography began working in 1877. The printing house published books mainly in the Uzbek language. Researchers were able to establish that this lithography began working in 1874. Subsequently, this lithography played an important role in the development of the Khorezm printing house. Lithography played an important role in the formation of the literary center at the palace of poets and writers of Khiva and its environs during the reign of Khan Muhammad Rahimkhan II (1863-1910). With the support of Feruz, dozens of collections and translations of poets were published in lithography. The importance of lithography during this period was the reproduction of copies of books. The article examines some works published in Khiva lithography - divans.

Keywords: Khiva lithography, typography, printing activity, divan, palace literary environment.

Sharq mamalakatlarida ilk kitob bosish – tipografiyalari Turkiya, Eron kabi davlatlarda vujudga keldi. Ya'ni XVIII asr Turkiyada ilk tipografiya Vazir Ibrohim poshoning tashabbusi bilan sulton Ahmad III davrida ochilib, 1728-yil ilk mevasi – arab-turk lug'ati bosib chiqariladi [8; B.166.]. Eronda ilk chop etilgan kitob 1825-yilda chiqariladi. Bu kitob "Tarixi Abbosiy" asari bo'ldi [12]. Tipografiya keyinchalik Tabrizdan Tehronga ko'chiriladi. E. E. Bertels ma'lumotiga ko'ra Eronda XIX asrning 30-yillaridan litografik bosma asarlarning nisbatan tez tarqalishi kuzatiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan esa bu yerda allaqachon arzon "ommabop" adabiyotlar nashri yo'lga qo'yilgan edi [3; B.83-85.]. G.N. Chabrov ma'lumotiga ko'ra, Turk, eron, hind toshbosma kitoblari O'rta Osiyo xonliklariga Rossiya bosqinidan ancha oldin kirib borgan edi. Bunda G.N. Chabrov Toshkent davriy matbuoti – "Okraina" gazetasining 1896-yilgi sonida berilgan xabarga asoslanadi. Kitoblar Buxoro va Farg'ona orqali kirib kelgan. XIX asrning 60-yillarida Xo'jandga Konstantinopol va Aleksandriya shaharlaridan kitoblar Makka ziyoratidan qaytayotgan ziyoratchilar orqali olib kelingan. XIX asrning so'nggi choragigacha kitoblar faqat qo'lyozma shaklida bo'lib, buning asosiy sababi xonliklarda birorta litografiya va tipografiyalari mavjud emas edi [2; B.49.]. Asar nusxalarini ko'paytirishning bu usuli qisqa vaqt ichida nashr sonlarini oshishi uchun ayni muddao edi. Qo'lyozma usulidan oson va vaqt tejimkorligi ustunlik qilgan. Holbuki XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlarida Buxoroda 75, Samarkand esa 22, Xivada 47, Toshkentda 25, Farg'onada 38 mashxur va taniqli xattotlar bo'lib, ular xalqimiz yaratgan asl ilmiy durdonalarni, bizgacha yetib kelishiga hissa qo'shganlar [1; B.25-26.].

Xiva toshbosmasining O'rta Osiyodagi boshqa toshbosmalardan farqi shuki, toshbosma Muhammad Rahimxon II Feruz saroyi qoshida ochilgan bo'lib, u asrlar davomida ko'z qorachig'iday asrab kelingan xalqning noyob madaniy merosi bo'lgan qo'lyozma asarlarni ko'paytirish bilan shug'ullangan. Ba'zi manbalarda mazkur toshbosma 1877-yildan faoliyatini boshlaganligi to'risida ma'lumotlar keltiriladi [9; B.40.]. Bosmaxonada kitoblar asosan o'zbek tilida nashr qilingan. Toshbosmaning ham asosiy vazifasi qo'lyozma asarlarning nashrini ko'paytirish bilan oylab, yillab xattotlar tomonidan ko'chirilayotgan asarlarni, tarjimalarni qisqa vaqt ichida nashr qilib, xalq ommasiga tortiq qilishdan iborat bo'lgan.

Toshbosmada ilk bor matbaachilik faoliyatini Ibrohim Sulton boshlab bergan. Ibrohim Sulton yangi tashkil etilgan toshbosmada bitta o'zi ishlashga qiyinchilik sezgach, Otajon Abdalovni shogirdlikka oladi. Otajon Abdalov bu yerda besh yil davomida shogird sifatida keyinchalik esa doimiy matbaachi sifatida o'z faoliyatini davom ettiradi. Bu haqda O.Abdalvoning o'zi ham to'xtalib o'tgan, ya'ni toshbosma matbaasidagi xizmatining ilk to'rt 1874-1878-yillari shogirdlikda bo'lgani, keyinchalik mustaqil ishlay boshlaganligini aytib o'tgan. G.N.Chabrov ma'lumotiga ko'ra, O.Abdalov 1874-yildan boshlab to 1878-yilgacha o'zi mustaqil ishlaydi. Dastlab, toshbosmada ba'zi hujjatlar chop etila boshlandi. Ibrohim Sulton Eronga jo'nab ketgach toshbosmadagi barcha ishlar ma'suliyati Otajon Abdalov zimmasiga yuklatildi. 1876-yilda Otajon Muxammad Rahimxonga noshirlik mehnatining ilk mevasi "Nisobus Sibyon" kitobini taqdim etishga musharraf bo'ldi. Abunosir Farrohiy qalamiga mansub bu asar kitob shaklida Xiva litografiyasida Otajon Abdalov tomonidan ilk bor nashr qilingan. Toshbosmaning ilk namunasi sifatida G.N.Chabrov hamda Ye.K.Betgerlar 1880-yilda chop etilgan A.Navoiyning "Xamsa" asarini keltirib o'tadilar. Ushbu masala, ya'ni toshbosmada

ilk nashri etilgan asar uzoq vaqt tortishuvlarga sabab bo'ldi. A.Yazberdiev ta'kidlaganidek, birinchi nashr haqida A.Vamberi [13; B.198.] hamda A.N.Samoylovich [11] ma'lumotlariga asoslangan holda P.M.Melioranskiy [8; B.166.] hamda V.V.Bartold [2; B.49.]lar 1874-yilda toshbosma faoliti boshlanganligini ta'kidlashgani holda birinchi nashr to'g'risida to'xtalib o'tishmagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar uchun birinchi nashr to'g'risidagi manba Ye.K.Betger keltirgan ma'lumotlar hisoblanadi. T.N. Qori Niyazov, M.Rustamov, faqat R.Maxmudova bergan ma'lumotlarda "Xamsa" asaridan farqli o'laroq "Nisobus-Sibyon" asari 1876-yilda chop etilgan birinchi toshbosma namunasi ekanligi keltiriladi [7]. "Nisobus - Sibyon" Xivadagina yemas, balki O'rta Osiyo mintaqasida birinchi bosma kitob hisoblanadi. 1981-yilda A.N.Samoylovich arxivini o'rganish natijasida Xiva toshbosmasi 1874-yilda faoliyatini boshlagani, chop etilgan ilk asar "Devoni Munis" ekanligi aniqlandi. Xiva toshbosmasining qaerdan olib kelinganligi masalasida ham ba'zi ikkilanishlar mavjud. Jumladan, A.N.Samoylovich nashr qilingan asarlarning tashqi ko'rinishiga qarab toshbosmaning Erondan olib kelinganligiga urg'u beradi [11]. Bevosita ishga tushishida taklif etilgan Ibrohim Sultonning o'rni e'tirof etiladi. R.Maxmudova Ibrohim Sultonning asli Xivada yashab qolgan eroniylerden ekanligini qayd etadi.

Xiva shahrida 1874-yilda ilk toshbosmaxona o'z faoliyatini boshladi. 1863-1910-yillarda ya'ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida Xiva va uning tevarak-atrofidagi shoir va adabiyotchilar saroyda adabiy markaz shakllantirishga muvaffaq bo'lishdi. Feruz ko'magida shoirlarning o'nlab devon va tarjimalari toshbosmada nashr qilindi. Akademik V.V.Bartold "Chor istilosiga qadar va istilo davrida ham saqlanib qolgan ikki xonlik o'rtasida Xivada madaniy yuksalishga intilish Buxorodan ham ko'ra jonliroq edi", - degan fikrlari Xorazmda mazkur davr adabiy muhitiga berilgan yuqori baho deb e'tirof etish mumkin [2; B.49.]. Quyida mazkur toshbosmada nashr yuzini ko'rgan ba'zi adabiyotlar to'g'risida to'xtalib o'tishni lozim deb hisobladik.

Shulardan, **"Devoni Munis"** - Shermuhammad Munis Xorazmiy (1778-1829)ning 1804-yilda tartib berilgan, o'zida 80 mingdan ortiq baytni qamrab olgan devoni. Devon shoir tomonidan "Munis al-ushshoq" deb atalgan. Devonining oxiriga shoir "Savodi ta'lim" asarini ilova qilgan. Devonga 14 sahifadan iborat debocha yozilib, unda shoir she'riy merosi haqida ma'lumot kiritilgan. Asar 1879-yilda nashr qilingan bo'lib, 669 sahifani tashkil etdi. Devon Xiva toshbosmasida ikki marta nashr etilgan [5; B.177.].

"Devoni Feruz" - Xiva xonliginshp Qo'ng'irotda sulolasi vakillarining eng mashhuri, Xiva honligida eng ko'p muddat taxtda o'tirgan xon Sayid Muhammad Bahodirxon II (1864-1910) bo'lib, Feruz taxallusi bilan she'rlar yozgan. Feruz ijodini o'rganish masalasini birinchi bo'lib Abdulla Qahhor o'rta qo'ydi. U. "Qizil O'zbekiston" gazetasida Feruz ijodini rad qilish mazmunida bosilib chiqqan bir maqolaga keskin qarshilik ko'rsatib: "Feruz mashhur lirik shoir, musiqashunos, kompozitor, yaxshi tarjimon, Umarxon singari o'z zamonasining shoirlarini o'rdasiga chiqqan. 1873-yilda bosmaxona sotib olib Xorazmda birinchi kitob bostirgan odam" degan gaplarni aytadi.

Devon tartib bergan, devoni 1880-yilda Xiva toshbosmasida nashr etilgan [5; B.188.]. Muhammadali Laffasiyning ma'lumotlariga ko'ra Feruz "Haft shahzoda" nomli to'plam ham tuzdirib, asar 1906-1909-yillarda Xiva tipolitografiyasida 4 marotaba chop qilingan. Feruz bu devonni "Haft shuaro" deb ham ataydi va aka-uka va qarindoshlari ijodidan namunalari

keltiradi. Bu tshplamni Komil Devoni nashrga tayyorlagan. Ogahiy o'zining "Ta'viz ul-oshiqin" devoni debochasida Ferzuning adabiyotga munosabatini quyidagicha ta'riflaydi: "Hamisha ul janobning sharofatlig' odati ulamo va fuzalo zumjrasig'a navozish va marhamat ko'rguzmak, xususan, shuaro va zurafo jamoasi sha'nida baxshish va tarbiyat rusumin tuzmakdur. Lihozo aksar ulamo va fuzalo va shuaro ul janobning bihishtoyin majlisig'a fazlu donish vasilasi bila yo'l topib, iltifot va ihsonoti ne'matidin mahzuz va bahramand bo'lub, suhbu shom, balki alalvadam duoyi davlatig'a mashg'ul va mash'ufdurlar"

"Devoni Ogahiy" - Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874)ning 1872-yilda tuzgan "Ta'viz al-oshiqin" nomli devoni. U 18 ming misradan iborat bo'lib, devondagi she'rlari soni jami 810 ta [10; B.6.]. "Ash'ori forsiy" nomi bilan fors tilida yaratgan 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Ogahiy mazkur she'rlar to'plamiga yozgan muqaddimasida o'z tarjimai holini keltirib, devonga o'zbek va qisman fors tilidagi barcha she'rlarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Aslida devon tuzilgan sana ma'lum emas, ammo Xivada Muhammad Rahimxon madrasasining qurilishi haqidagi oxirgi tarixdan ma'lum bo'lishicha, "Oshiqlar tumori" 1871-1872-yillarda tuzilgan. Shoirning o'zi debochada shunday deydi: "Aksari ash'orimni jam' etib, devon suvratida bitdim. Chun barchasi dardi ishq o'ti harorati bila og'ishta va shavqu muhabbat asarining siryat sirishta va oshiqlar g'aminging tazkiniga sabab va darmandalar olamining taxfigiga mujib erdi – lojaram, agar ishq va dard ahlining qo'lig'a tushsa, ta'viz (tumor) yanglig' ixloslari bo'yunlarig'a osib, izzat bila asrar erdilar va mutolaa qilib, shavqangiz mazmunlari doirasidin ishq marazi bila mavsum qildim". Ushbu devondan 1876-, 1901-, 1903-, 1905-yillarda nusxalar ko'chirilgan. Devon 1882-yilda Xiva toshbosmasida chop etilib [10], 530 sahifani tashkil qildi. A.N.Samoylovich devonning 1905-yilda nashr qilingan nusxasi haqida ham ma'lumot beradi. Devon 1909-yilda ham toshbosmada chop etilib ommalashtiriladi [10].

"Devoni Sultoniy" - Sayid Nosir to'ra Muhammadyor to'ra o'g'li Sultoniy Muhammad Rahimxon Feruzning nevarasi bo'ladi. Bayoniy unga ustoz bo'lgan. U 1920 Sho'rolar hukumati tomonidan o'n to'ra birodarlari bilan Sibirga surgun qilingan. Devonida 373 ta g'azal, 1 tadan mustahzod va murabba', shuningdek, musaddas, musabba', musamman, tarje'band, masnaviy, ruboiy, muammo va qasidalar o'rin olgan. "Devoni Sultoniy" 1906-yil, 1907-yil, 1908-yillarda litografiyada nashrdan chiqqan.

"Devoni Nozir" - Muhammad Husayn Muhammad Devonbegi o'g'li Noziriy Xiva saroyida devonbegi mansabida ham ishlagan. Devoni Xiva toshbosmasida ham nashr etilgan [5; B.180.]. E.Axunjanov ma'lumotiga ko'ra devon ikki marta nashr qilingan, ya'ni 1907- va 1909-yillarda.

"Devoni majmuat al-shuaro" - yoki "Majmuai o'ttiz shuaro shohi payravi Feruz" Ahmad Tabibiy (1869-1911)ning 1908-yilda Muhammad Rahimxon Feruz(1864-1919)ning buyrug'i bilan tasnif etgan she'riy majmuasi. Asarga Ahmadjon Tabibiy 7 sahifalik debocha ham yozadi.

Devon adabiy manba sifatida 3331 g'azalni jamlab, g'azallarning 101 tasi Feruz qalamiga mansub, qolgan she'rlar unga payravlar hisoblanadi [6; B.20.]. Ya'ni Feruzning 101 ta g'azaliga Xiva saroyi shoirlaridan 32 nafari payrav-nazira g'azal aytishadi. Feruz zamonasidagi 33 nafar shoirning hayoti va ijodi haqida so'z boradi. Tabibiy shularni to'plagan va har bir shoir hakida ham masnaviy tariqasida baho bergan. Shuning uchun ham asarning yana bir nomi «Majmuai si shuaroysi payravi Feruzshohiy» deb ham ataladi. Bayoniy (1859-1923) bu hakda bunday xabar yozib qoldirgan: «Xon hazratlari o'z g'azallaridan yuz g'azalni shoirlarg'a berib

buyurdilar: “Munga payravlik etib g’azal aytinglar”. Shoirarning har biri onga payravlik etib, yuz g’azal aytdilar. Xon hazratlari Tabibiyg’a amr etdikim, tokim, al-g’azallarni masnaviy zimnida jam qilib, bir kitob etgay. Tabibiy farmon mujibi bila amal qilib, al-g’azallarni jam qilib, har g’azalni yozmoqchi bo’lg’anda, masnaviy bila al-g’azalni aytg’on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamomi g’azallarni jam qilib, tamom etib, al-kitobla “Majmuatush shuaro” ot qo’yuldi”. Tabibiy ushbu farmonga muvofiq, tazmin g’azallarni to’plab, har bir g’azal muallifi haqida masnaviy ham bitib muhim ma’lumot berdi deyish mumkin. 1908-yildagi ushbu farmon Tabibiyni majmua tuzishga undadi. “Majmuatush shuaro” 1909-yilda Xiva toshbosmasida ham nashr etilgan [5; B.175.]. 1655 sahifadan iborat devonga 30 dan ortiq shoirning hayoti va ijodidan namunalar kiritilgan. Tabibiy tazkiraga kiritilgan adabiyot namoyondalarini sulolaviy va ijodiy prinsiplar asosida, shuningdek, o’ziga xos tarzda – ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o’rni, jamiyatda egallagan mavqeiga ko’ra qat’iy tartibda joylashtiradi. Bu tartib o’ziga xos an’aa sifatida Laffasiy tazkirasida ham davom ettiriladi [6; B.21.]. Asarning qo’lyozma shaklida Inoyat, Muznibning toshbosma nusxaga kiritilmagan g’azallari ham keltiriladi [6; B.23.].

Tabibiy she’riyatining mazmun-mohiyatini, ruhini tushunib olishda zamondoshi, rus sharkshunosi A.N.Samoylovichning shoir haqidagi xotiralari alohida ahamiyatga ega. Taniqli turkshunos 1909 yili Xivaga kelgan, 1638 sahifalik “Majmuat ush-shuaro”ni erinmay o’qib chiqqan va uning tuzuvchisi bilan uzoq suhbatlar qurgan edi. So’ng esa, majmua haqida kattagina taqriz e’lon qildi. Olim XX asr boshidagi an’anaviy she’riyatimiz namunalarini kuzatar ekan, unda yangi adabiyotga xos xususiyatlar paydo bo’layotganini nozik his qiladi va buni Tabibiy misolida shunday tushuntiradi: “Shoir, aytishiga qaraganda, erkin fikrli qarashlari sababli madrasadagi musulmon fanlarining to’la kursini o’zlashtirishdan voz kechgan, — deb yozadi u Ahmad Tabibiy haqida. – U Xivaga xivaliklarning mustamlakachilar — ruslar, nemislar bilan, tatarlar bilan bevosita aloqalari tufayli va undan tashqari yangi yo’nalishdagi tatarcha, usmoncha kitoblar, jurnallar va gazetalar orqali kirib kelayotgan yevropacha ilm mazasidan jindak tatigan. Hukmdorining topshirig’i bilan dori-darmon uchun Mashhadga borib, o’sha yerda malaka oshirib qaytgan Ahmad Tabib musulmoncha usulda tabiblik qiladi Kuzatishimcha, “Majmua” muharririning o’z jonajon O’rta Osiyo adabiyotining benihoyat uzoq va mutlaqo yakrang asrini kechirayotgan hozirgi qiyofasiga ham munosabati xuddi shunday. Va yosh Xivaning adabiyot sohasida yakka-yolg’iz bo’lmagan bu vakili, garchi hozir afltunchasiga bo’lsa-da, usmonli, turkiy-qozon, turkiy-kavkazcha eng yangi asarlarga, tarjima va originallarga, shubhasiz, moyil. Shoirning menga o’z qalamkash birodarlarini “bularning hammasi uchun Mir Alisher Navoiy o’rnakdir, lekin hech biri uning iste’dodiga ega emas”, — deb ta’riflaganidagi dilgir-nafratchan yuz ifodasi shundoq esimda” [4].

“Devoni Shinosiy” - Shayxnazarboy Muhammadmurod o’g’li Shinosiy (vaf. 1918) Xiva saroyi mansabdorlaridan biri bo’lib, nazmga ham oshno bo’lgan. Ko’hna Urganch hokimi Shayx Nazarboy Shinosiy taxallusi bilan she’rlar yozgan va devon tartib etgan. Devoni Xiva toshbosmasida ham nashr etilgan [5; B.193.]. Shinosiy haqida 1908-yilda Xivaga qilgan safari chog’ida A.N.Samoylovich ma’lumot berib o’tgan bo’lib, hisobotlarida Feruz, Bayoniy, Mirzolar bilan bir qatorda Habibiy, Haqiriy, Shinosiy kabi shoirlar ijod bilan mashg’ul ekanligini ta’kidlaydi.

Bulardan tashqari Xiva litografiyasida XX asr boshlarida nashr qilingan matbaa mahsuli sifatida Ali Safiyning “Rashahotu ul-hayot” (1890-yil), Lutfullo Nasafiyning “Sharh va tarjimai fihi Kaydoniy musammi ba targ’ir ul musammin” (1890-yil) “Devoni Sanoyi” (1909-yil), “Devoni Sodiq”(1906-yil,1918-yillarda), “Devoni Tabibiy”(1909-yil, 1910-yillarda), “Hayratul-ooshiqin”(1910-yil), “Devoni Oqil”(1906-yil), “Devoni G’ujjiy”(1907-yil, 1908-yil, 1909-yillarda), “Devoni Farrux”(1906-yil), “Zayn al-arab”(1911-yil), “Mazhar al-ishtiyoq”(1909-yil) asarlarini ham keltirish mumkin.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Тошкент. «Академия», 2000. – Б. 25-26.
2. Бартольд В.В. История Туркестана. Труды Туркестанского гос. университета. Вып. 2. – Ташкент, 1922. – С. 49.
3. Бертельс Е.Э. Персидская «лубочная» литература. С. Ф. Ольденбургу 50-летию научно-общественной деятельности. 1882-1932. Сборник статей. – Л., 1934. – С. 83-85.
4. Долимов У. Аҳмад Табибий (1869-1910) // [Улугбек Долимов. Аҳмад Табибий \(1869-1910\) — ziyouz.uz](https://uzyouz.uz)
5. Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз Кутубхонаси Феҳристи. Тошкент; 2010. Янги аср авлоди. Б. 177
6. Маткаримова С.Қ. Табибий – тазкиранавис (“Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузошхӣ” асосида): Филол. Фан. Номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б. 23.
7. Махмудова Р. Литографированные произведения и их значение в истории литературы (конца XIX – нчало XX в.): Автореф.канд.дисс. Ташкент, 1971.
8. Мелиоранский П.М. Турецкие наречие и литературы. Энцикл. словарь Брокгауза Ефрона, Т. 34. – С. 166.
9. Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики 1917 – 1924 гг. Ленинград., Издательство Ленинградского университета. 1984. С.40.
10. Рўзимбоев С., Аҳмедов А., Йўлдошев Р. Огаҳийнинг адабий-тарихий мероси (ижодий портрет). – Урганч, Ал-Хоразмий номли Урганч давлат университети филологик тадқиқотлар маркаи, Хоразм Маъмун Академияси. 2008. – Б. 6.; Огаҳий олами. – Урганч, Ал-Хоразмий номли Урганч давлат университети. – Б. 4.
11. Самойлович А.Н. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Национальная библиотека России.Рукопис.отд.Ф.671 .Он. 1 .№ 145.
12. Типографное и литографное дело в Персии. Известия имп. Русского географического общества, Т. II, № 5, Мелкие известия. – СПб., 1866. – С. 157.; Чабров Г.Н. У истоков узбекской полиграфии (хивинская придворная литография 1874-1910 гг.) // Книга / Исследования и материалы. Сбор. IV. – Москва.: Издательство Всесоюзной книжной палаты, 1961. – С. 317.
13. Vambery H. Zwei modern centralasistusche Dichter, Munis und Emir.S.198.